

## TALABALARNING LINGVISTIK KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISH TEXNOLOGIYASI

*Rashidova Lola*

*Samarqand shahar 29- umumta'lim maktabi*

**Annotatsiya:** talabalarning lingvistik kompetensiyasini rivojlantirish texnologiyasi ta'lim jarayonida til va kommunikatsiya ko'nikmalarini oshirishga qaratilgan innovatsion usullardan iborat. Ushbu texnologiya, talabalar o'rtasida muloqot, yozish va o'qish qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beruvchi metod va vositalarni o'z ichiga oladi. Interaktiv o'qitish, tashabbuskorlikni rag'batlantirish va onlayn resurslardan foydalanish orqali talabalar o'z fikrlarini samarali ifodalash, tildagi nozikliklarni tushunish va til o'rganish jarayonini qiziqarli qilish imkoniyatiga ega bo'lishadi. Ushbu maqolada lingvistik kompetensiya, uning tarkibiy qismlari, shuningdek, bu borada qo'llaniladigan texnologik yondashuvlar va o'qitish metodlari tahlil qilinadi.

**Kalit so'zlar:** lingvistik kompetensiya, o'qitish metodlari, interaktiv muloqot, o'zaro ta'sir, ta'lim texnologiyalari, til ko'nikmalari, innovatsion yondashuvlar, ta'lim jarayoni.

**Аннотация:** технология развития языковой компетентности студентов состоит из инновационных методов, направленных на совершенствование языковых и коммуникативных навыков в образовательном процессе. Эта технология включает в себя методы и инструменты, которые помогают учащимся развивать навыки общения, письма и чтения. Благодаря интерактивному обучению, поощрению инициативы и использованию онлайн-ресурсов студенты имеют возможность эффективно проявить себя, понять тонкости языка и сделать процесс изучения языка интересным. В данной статье анализируется языковая компетентность, ее компоненты, а также используемые в этом отношении технологические подходы и методы обучения.

**Ключевые слова:** языковая компетентность, методы обучения, интерактивное общение, взаимодействие, образовательные технологии, языковые навыки, инновационные подходы, образовательный процесс.

**Abstract:** *the technology of developing students' linguistic competence consists of innovative methods aimed at improving language and communication skills in the educational process. This technology includes methods and tools that help students develop communication, writing, and reading skills. Through interactive teaching, encouraging initiative and using online resources, students have the opportunity to express themselves effectively, understand the subtleties of the language and make the language learning process interesting. This article analyzes linguistic competence, its components, as well as technological approaches and teaching methods used in this regard.*

**Key words:** *linguistic competence, teaching methods, interactive communication, interaction, educational technologies, language skills, innovative approaches, educational process.*

O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasida "chet tillar... kabi boshqa muhim va talab yuqori bo'lgan fanlarni chuqurlashtirilgan tarzda o'rganish", "yuksak bilimli va intellektual rivojlangan avlodni tarbiyalash, oliy ta'lim muassasalarida kompetentli ilmiy-pedagogik kadrlar zahirasini yaratish" kabi ustuvor vazifalar belgilandi. Ushbu vazifalarning muvaffaqiyatli hal etilishi jarayonida bugungi ta'limni raqamlashtirish muhitida bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarida intellektual bilimlar zahirasini puxta egallash, ta'lim sohasida raqamli ta'lim ko'nikmalari va malakalarini oshirish orqali mutaxassislikka oid lingvistik kompetensiyasini rivojlantirishning pedagogik imkoniyatlari kengayadi. Zamonaviy dunyoda har qanday chet tilini o'rganishga talablar nihoyatda yuqori, shuning uchun chet tilini yaxshi bilish darajasi har qanday xorijiy davlatning kelajakdagi mutaxassisining raqobatdoshligi va kasbiy harakatchanligiga yordam beradi. Chet tilini o'rganish natijasida kelajakdagi mutaxassislar nafaqat kommunikativ, balki umumiy madaniy va kasbiy kompetensiyalarni ham o'zlashtirishlari kerak. Ushbu kompetensiyalar to'plami asosiy kompetensiyalar deb

nomlanadi. Hozirgi kunda rivojlangan mamlakatlarda o'quvchilarning o'quv predmetining o'zlashirishlariga qaratilgan ta'lim paradigmasidan kompetensiyali ta'lim tizimiga o'tish harakati kuchaydi. Shuning uchun ham jahon pedagogikasida kompetentli shaxs tarbiyasi, kompetentli o'qish muammolari ko'tarilmoqda. Lingvistik kompetensiya rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillar: lingvistik kompetensiya atrof-muhit, irsiy va ta'lim omillarining kombinatsiyasi natijasida rivojlanadi.

a) atrof-muhit omillari: Tadqiqotlar boy til muhitining ahamiyati, turli xil lingvistik ma'lumotlarga ta'sir qilish va ijtimoiy-iqtisodiy holatning til rivojlanishiga ta'sirini ta'kidlaydi. Xart va Rislining muhim tadqiqoti (1995) erta bolalik davridagi til o'rganishning miqdori va sifati bilan keyingi til natijalari o'rtasidagi bog'liqlikni ko'rsatdi.

b) genetik omillar: Tilning rivojlanishida genetik moyillik muhim rol o'ynaydi, bu tilning o'ziga xos tuzilishi va til bilan bog'liq xususiyatlarning irsiyligi (Bishop, 2001) bo'yicha tadqiqotlardan dalolat beradi.

c) ta'lim omillari: Ta'lim sharoitlari va o'qitish amaliyoti lingvistik kompetensiyaga sezilarli ta'sir qiladi. Samarali savodxonlikni o'rgatish, tildagi kechikishlar uchun erta choralar hamda o'qish va yozish orqali tilni boyitish imkoniyatlari til ko'nikmalarini oshirishi ko'rsatilgan (Snow, Burns va Griffin, 1998).

d) Madaniy va ijtimoiy omillar: Madaniyatlararo tadqiqotlar turli madaniyatlar va jamoalarda lingvistik va pragmatik me'yorlar qanday o'zgarishini o'rganib chiqdi (Gudykunst & Nishida, 2001).

O'quvchilarda lingvistik kompetensiyani rivojlantirish ko'p qirrali jarayon bo'lib, tilni o'zlashtirish va tushunishning turli o'lchovlarini o'z ichiga oladi. Bunga yuqorida sanab o'tilgan omillar atrof-muhit, irsiy va ta'limiy omillar, shuningdek, madaniy va ijtimoiy omillarning murakkab o'zaro ta'siri lingvistik kompetensiyani rivojlantiradi. Tadqiqotchilar va o'qituvchilar tilni o'rgatish jarayonida o'quvchilarni qo'llab-quvvatlashni kuchaytirish, natijada samarali muloqot va akademik muvaffaqiyatga erishishga qaratilgan lingvistik kompetensiyani rivojlantirishning nozik tomonlarini o'rganishda davom etmoqdalar. O'quvchilarda lingvistik kompetensiyani rivojlantirish ko'p qirrali jarayon bo'lib, tilni o'zlashtirish va tushunishning turli o'lchovlarini o'z ichiga oladi. Bunga yuqorida sanab o'tilgan omillar atrof-muhit, irsiy va ta'limiy omillar, shuningdek, madaniy va ijtimoiy omillarning

murakkab o'zaro ta'siri lingvistik kompetensiyani rivojlantiradi. Tadqiqotchilar va o'qituvchilar tilni o'rgatish jarayonida o'quvchilarni qo'llab-quvvatlashni kuchaytirish, natijada samarali muloqot va akademik muvaffaqiyatga erishishga qaratilgan lingvistik kompetensiyani rivojlantirishning nozik tomonlarini o'rganishda davom etmoqdala

Kompetensiyaviy ta'lim o'quvchilarning ma'lum bilimlar yig'indisini egallashnigina emas, balki shaxsni rivojlantirish, anglash va yaratish qobiliyatlarini o'stirishni mo'ljallaydi[2]. Ta'limning barcha bosqichlarida ona tilini o'qitishning asosiy maqsadidan kelib chiqqan holda jamiyat ona tili ta'limi oldiga o'quvchi shaxsida fikrlash, o'zgaralar fikrini anglash va fikr mahsulini og'zaki va yozma shaklda savodli bayon qila olish, ya'ni mustaqil va ijodiy tafakkuni rivojlantirish vazifasini qo'yadi. Shundan kelib chiqib til ta'limini o'zlashtirish jarayonida o'quvchilarda, shu fanning o'ziga xosligi, mazmunidan kelib chiqqan holda kompetensiyalarni egallash belgilanadi. Chet tili faoliyatga asoslangan o'quv predmeti sifatida, kommunikativ ompetensiyaning beshta tarkibiy qismini shakllantirishga yo'naltirilgan. bo'ladi: lingvistik (tilning asosiy birliklari: tovushlar va harflardan to to'liq matngacha va ularni boshqarish qoidalarini o'zlashtirishni o'z ichiga oladi); nutq (chet tildagi nutq faoliyatining asosiy turlari: gapirish, tinglab tushunish, o'qish va yozishni o'zlashtirish); ijtimoiy-madaniy (umumiy fondagi, mintaqaviy va umum-madaniy bilim, ko'nikma va malakalarni o'rganish); kompensatorlik (cheklangan miqdordagi til vositalari bilan ham faoliyatni amalga oshirish ko'nikmalarini egallash.

Lingvistik kompetensiya – bu talabalar tilni o'rganish, muloqot qilish va o'z fikrlarini aniq ifodalash qobiliyatidir. Maqsad, talabalarning til ko'nikmalarini rivojlantirish va ularni hayotda samara bilan qo'llay olishidir. Interaktiv o'qitish: o'quv jarayonida talabalarni faol jalb qilish, katta bahs-munozara va guruhli ishlarni tashkillashtirish orqali ularning kommunikativ qobiliyatlarini oshirish. Innovatsion metodlar: problema yechish, loyiha asosida o'qitish va rolli o'yinlar orqali tilni o'zaro faoliyatda o'rganish imkoniyatini yaratish. Bu metodlar talabalar orasida ijodkorlik va tashabbuskorlikni rivojlantiradi. Raqamli resurslar: onlayn platformalar va mobil ilovalar

orqali talabalar uchun qo'shimcha o'qish materiallari, testlar va interaktiv mashqlar taqdim etish. Bu vositalar o'z-o'zini o'rganish va nazorat qilish imkoniyatini ham beradi. Tashabbuskorlik va muloqot: talabalarni o'z fikrlarini ifodalashga, muhokama qilishga va bir-biridan o'rganishga undaydigan muhit yaratish. Bu jarayon o'zaro samarali muloqotga asoslanadi. Ushbu texnologiyalar yordamida talabalar tilni nafaqat o'rganish, balki uni amaliyotda qo'llashni ham o'rganadilar. Lingvistik kompetensiyani rivojlantirish, nafaqat akademik muvaffaqiyatni ta'minlaydi, balki talabalar uchun kelajakdagi professional faoliyatlarida yuqori natijalarga erishish imkoniyatini beradi. Umuman olganda, talabalarning lingvistik kompetensiyasini rivojlantirish texnologiyasi ta'lim jarayonining samaradorligini oshirib, o'quvchilarni zamonaviy hayotga tayyorlaydi. O'qituvchilar ushbu texnologiyalardan foydalanib, o'z darslarini yanada qiziqarli va samarali qilishlari mumkin.

Talabalarning lingvistik kompetensiyasini rivojlantirishda zamonaviy texnologiyalarni qo'llash samaradorligini oshiradi. Interaktiv darslar, onlayn resurslar va multimedia materiallar yordamida talabalarning til ko'nikmalarini yanada rivojlantirish mumkin. Ushbu texnologiyalar o'zaro faoliyatni rag'batlantiradi, mustaqil o'rganishni ta'minlaydi va tilni amaliyotda qo'llash imkoniyatini yaratadi. Umuman olganda, lingvistik kompetensiyani oshirish uchun texnologik yondashuvlar ta'lim jarayonini yanada samarali qiladi.

### **Foydalanilgan adabiyo va havolalar**

1. Sattarov T.K. Bo'lajak chet til o'qituvchisining uslubiy omilkorligini shakllantirish texnologiyasi. Toshkent. TDYUI, 2003.
2. Gulyamova M.X. Ingliz tili o'qitishda talabalarning kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishga integrativ yondashuv. Pedagogika fan. Nomzodlik dissertatsiyasi avtoreferati. -T., 2019. 45-b.
3. Hoshimov O', Yoqubov I. Ingliz tili o'qitish metodikasi. -T.:Sharq, 2003.
4. Saydaliyev S. Chet til o'qitish metodikasidan ocherklar. –Namangan -2004-238-b.
5. <https://zenodo.org/records/8429706>

6. <https://ilmfanvatalim.uz/index.php/ift/article/view/229>